

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 159 (1758), 2026-yil 7-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ENERGETIKA TARMOG‘IDAGI USTUVOR VAZIFALAR IJROSI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 6-avgust kuni energetika tarmog‘i oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari yuzasidan axborot berildi.

Joriy yil 27-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi ustuvor masalalar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Unda sohadagi boshqaruv, joylarda elektr va gaz ta‘minoti barqarorligi, avariylar hamda energiya yo‘qotishlarini qisqartirish borasidagi ishlar tanqidiy tahlil qilindi.

Xususan, elektr va gaz ta‘minoti bilan bog‘liq ishlarni “tumanbay” va “mahallabay” tashkil etish, hududlarning energiya iste‘moli balansini shakllantirish, tarmoqlar va uskunalarni xatlovdan o‘tkazish, kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko‘rish, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni keng joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan edi.

Taqdimotda Energetika vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati va O‘zenergoinspeksiya yangi rahbariyatining mazkur topshiriqlar ijrosini tashkil etish borasida olib borayotgan ishlari hamda kelgusi rejalari ko‘rib chiqildi.

Jumladan, hozirda Yangiyo‘l tumanida elektr va gaz ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha maxsus shtab faoliyat yuritmoqda. U yerda tadbirkorlar va aholi bilan ochiq muloqotlar o‘tkazilib, uzilishlar, quvvat yetishmasligi, gaz bosimining pasayishi, texnik shartlar olish va qarzdotlik bilan bog‘liq murojaatlar bevosita o‘rganilmoqda.

Yangiyo‘l tumani tajribasi asosida boshqa 13 ta tumanida ham ushbu yondashuvdagi namunaviy tizim yaratib, keyinchalik uni boshqa hududlarda ham joriy etish rejalashtirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarini elektr va gaz tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlarni rasmiylashtirish jarayonlarining qonuniyligi va shaffofligini ta‘minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish choralari kuchaytirilmoqda.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida muammoli tarmoqlar va uskunalarni yangilash, energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, energiya samaradorligi choralari ko‘rish, avariya yuzilishlar sabablarini bartaraf etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, soha xodimlariga vazifalarni elektron tizim orqali yetkazish, ijrosini nazorat qilish va faoliyat samaradorligini aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Energetika vazirligiga tarmoqda yagona va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, soha korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarni tizimli tashkil etish vazifalari yuklatildi.

“Hududiy elektr tarmoqlari”ga joylarda elektr ta‘minoti barqarorligini oshirish, infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avariya yuzilishlarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash topshirildi.

O‘zenergoinspeksiya zimmasiga energiya resurslaridan oqilona foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, texnik talablarga rioya etilishini ta‘minlash, yo‘qotishlarni qisqartirish va yirik iste‘molchilarni energiya auditidan o‘tkazishni jadallashtirish vazifalari qo‘yildi.

Tabiiy gaz yetkazib berish imkoniyati cheklangan mahallalarni mavsumga tayyorlash, suyuqlirilgan gaz ta‘minotiga xususiy sektorni keng jalb qilish, sohadagi jarayonlarning monitoringini yuritishda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari barcha choralarni manzilli va aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshirish, aholi hamda iqtisodiyot tarmoqlarini elektr va gaz bilan barqaror ta‘minlash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



ORZULAR RO‘YOBIN KO‘RGAN TAQDIRLAR

“O‘n besh daqiqa ekan-ku, bolam. Oldingi ovoragarchiliklarimiz, chekkan azob-uqubatlarning oldida bu hech narsa emas...”.

Bu gapni gavjum bozor burchagidagi bank filialida, chiroq o‘chgani sabab hosil bo‘lgan tirbandlikda navbat kutayotgan bir otaxon aytdi. Avvaliga bu so‘zlar shunchaki keksalarga xos sabr-toqatning navbatdagi ifodasidek eshitildi. Ammo bir necha soniya o‘tib, bu oddiygina jumla zamiridagi tog‘dek zalvarni, teranlikni angladim. Bu tabarruk inson elektr ta‘minotidagi qisqagina uzilish haqida emas, balki butun bir davr, butun bir avlodning umrini yeb bitirgan o‘tgan chorak asrlilik ijtimoiy masofa va undan o‘tish jarayonidagi ulkan, tarixiy o‘zgarishlar haqida gapirayotgan ekan...

Ba‘zan eng katta, eng jonli va jamiyatning asl yuzini ko‘rsatadigan mavzularni dabdabali yig‘ilishlardan, raqamlarga to‘la hisobotlardan emas, balki odamlar gavjum mana shunday bozorlardan, oddiy odamlar bilan suhbatlardan topasiz.

O‘sha kuni Jizzax shahrining eng fayzli bozorlaridan biriga yo‘lim tushdi.

Bilasiz, bozor bu shunchaki oldi-sotdi joyi emas, u elning kayfiyatini, turmushini va yashash tarzini ham ko‘rsatadigan ko‘zgu.

Rastalarga qarab ko‘zim quvnadi, to‘kin-sochinlik, sarxil noz-ne‘matlarning rang-barang jilosi odamning bahri dilini ochadi. Biroq meni ko‘proq mahsulotlar emas,

atrofdagi insonlarning chehrasi o‘ziga tortdi. Xaridorlarning ham, sotuvchilarning ham yuzida tabassum, ichki xotirjamlik bor. Ko‘zlarda ertangi kundan xavotir sezilmaydi. Odamlar shoshilmasdan, did bilan bozorlik qilyapti. Narx-navo ham ilgirigidek kun sayin oshmayapti, ancha barqarorlashib qolgan.

To‘g‘risi, o‘sha lahzada beixtiyor o‘tmishni esladim. Bir paytlar bozorga kirishga yurak bezillab turardi. Odamlar rastadagi go‘st yoki yog‘ga emas, birinchi navbatda, uning tepasiga yozilgan qog‘ozdagi narxa xavotir bilan tikilardi. Cho‘ntakdagi arzimagan pul bilan ro‘zg‘orning kamini qanday to‘ldirish haqida o‘ylardi.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar



O‘ttiz besh yil — tarix uchun qisqa, inson hayoti uchun esa butun bir avlod umri. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishib, o‘z taraqqiyyat yo‘lini, ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilash huquqiga ega bo‘ldi. Shu davrda suveren davlat institutlari barpo etildi, milliy manfaatlariga asoslangan tashqi siyosat shakllandi, iqtisodiyot va jamiyat bosqichma-bosqich yangilandi.

INSON QADRI VA BARQAROR KELAJAK UYG‘UNLIGI

Biroq mustaqillikning eng katta qiymati davlat ramzlari va xalqaro maqom bilangina o‘lchanmaydi. U insonning o‘z yurtida qadr topishi, adolatga ishonishi, munosib mehnat qilishi, farzandining sifatli ta‘lim olishi va kelajakka ishonch bilan qarashida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, 35 yillik yo‘l faxrlanish uchun asos bo‘lish bilan birga erishilgan natijalarni xolis baholash va yangi vazifalarni belgilash nuqtasidir.


Bugungi O‘zbekiston tarixi bo‘sh joydan boshlangan emas. Qadimgi Xorazm, Baqtriya,

So‘g‘d va Qang‘dan tortib, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar davrigacha bo‘lgan davlatchilik tajribasi ushbu zaminda boshqaruv, huquq, diplomatiya, shaharsozlik, savdo va ilm-fan an‘analari shakllanganini ko‘rsatadi. Zamonaviy respublika bu tarixiy tuzilmalarning aynan davomi emas, ammo xalqimizning ko‘p asrlilik davlatchilik xotirasi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash irodasining yangi siyosiy-huquqiy ifodasidir.

Davomi 2-betda

QO‘QON SHAHRI UNESCONING MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI BO‘YICHA GLOBAL ALYANSIGA QO‘SHILDI

Qo‘qon shahri UNESCOning Media va axborot savodxonligi bo‘yicha global alyansi (UNESCO Global Media and Information Literacy Alliance)ga qo‘shilgani rasman e‘lon qilindi.



Global alyans media va axborot savodxonligini rivojlantirish sohasida tajriba, bilim va amaliy yondashuvlarni almashish uchun muhim xalqaro platforma hisoblanadi.

Alyans davlat tuzilmalari, ta‘lim va ilmiy muassasalar, kutubxonalar, muzeylar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, yoshlar birlashmalari va boshqa manfaatdor tomonlarni birlashtirib, raqamli ko‘nikmalarni, axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga hamda zamonaviy ta‘lim va ma‘rifiy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashadi.

UNESCOning rasmiy xatida Qo‘qon shahri global alyansda to‘yxatdan o‘tgani tasdiqlangan va shaharning ushbu xalqaro platformadagi ishtiroki qutlangan.

Ushbu qaror O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz shaharlarining xalqaro aloqalarini kengaytirish, madaniy-ma‘rifiy salohiyatini ilgari surish, inson kapitalini, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, yoshlar siyosati, ta‘lim va ma‘rifat sohalarni

takomillashtirish bo‘yicha bergan topshiriqlari ijrosi doirasida amalga oshirilgan izchil ishlarning amaliy natijalaridan biri bo‘ldi.

Shaharning alyansdagi ishtiroki xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy shaharlar va ekspertlar hamjamiyati bilan tajriba almashish, UNESCOning sohaviy uslubiy materiallaridan foydalanish, shuningdek, media va axborot savodxonligi sohasidagi mahalliy tashabbuslarni ilgari surish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochadi.

Mazkur yo‘nalish UNESCOning “Media va axborot savodxonligi shaharlari” (Media and Information Literacy Cities / MIL Cities) tashabbusini ilgari surish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbus mahalliy boshqaruv organlari, ta‘lim va madaniyat muassasalari, kutubxonalar, muzeylar, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, oilalar hamda mahalliy jamoalarni jalb etish orqali shahar darajasida media va axborot savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan Qo‘qon tanqidiy fikrlash, raqamli madaniyat, axborotga mas‘uliyatli munosabatda bo‘lish hamda fuqarolar, eng avvalo, yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rivojlantirishga qaratilgan ma‘rifiy, interaktiv va madaniy tadbirlarni amalga oshirishda o‘zining boy tarixiy-madaniy salohiyati, ta‘lim sohasi va keng jamoatchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanishi mumkin.

Qo‘qonning UNESCOning Media va axborot savodxonligi bo‘yicha global alyansiga qo‘shilishi, shuningdek, shaharni xalqaro MIL Cities harakatining faol ishtirokchilari qatorida pozitsiyalash UNESCO bilan kommunikatsiya, axborot, ta‘lim, madaniyat va shaharlarning barqaror rivojlanishi sohalarida hamkorlikni mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

“Dunyo” AA
Parij shahri

Munosabat

LAVOZIM EMAS, SALOHİYAT VA NATIJA BAHOLANADIGAN DAVR

Har bir davlatning kuch-qudrati, avvalo, xalqning unga bo‘lgan ishonchi bilan belgilanadi. Bu ishonch esa adolatlari va samarali boshqaruv tizimi orqali shakllanadi va yuzaga chiqadi. Davlat fuqarolik xizmatlari ana shu tizimning asosiy harakatlaniruvchi kuchi sifatida islohotlarning xalqimiz hayotida o‘z aksini topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda davlat xizmatchilari mehnatini munosib baholash va rag‘batlantirish masalalariga yangicha yondashilmoqda. Prezidentimizning davlat fuqarolik xizmatchilarining ish haqi tizimini takomillashtirishga oid takliflar bilan tanishgani bu borada mutlaqo yangi, chuqur tahlillar asosida ishlab chiqilgan shaffof va adolatlari tizim joriy etilishidan dalolatdir.

Bir qarashda bu masala oddiy iqtisodiy yoki moliyaviy islohotdek tuyulishi mumkin. Aslida, gap davlat boshqaruvining butun falsafasini o‘zgaritish haqida ketmoqda. Chunki har qanday davlat xizmatchisi o‘z mehnati adolatlari baholanishiga ishongandagina tashabbus ko‘rsatadi, o‘z ustida ishlaydi va el-yurt manfaati yo‘lida sadoqat bilan xizmat qiladi.


Davomi 2-betda

Unutmas meni bog‘im



SO‘ZI HAM, O‘ZI HAM nafis edi

6



“

35 yillik sana faqat o‘tmishga qarab faxrlanish emas, natijalarni xolis baholash va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni belgilash nuqtasidir. Keyingi bosqichning bosh mezonini — xalqaro e’tirofni toza suv, sifatli ta’lim, munosib mehnat, adolat, sog‘lom muhit va ertangi kunga ishonch orqali odamlar hayotida seziladigan natijaga aylantirish.



Nuqtayi nazar

INSON QADRI VA BARQAROR KELAJAK UYG‘UNLIGI



Jahongir ISAYEV,
“Barqaror rivojlanish markazi”
NNT bo‘lim boshlig‘i

hududi deb e‘lon qilish, parlamentlarning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi rolini kuchaytirish kabi tashabbuslarning BMT rezolyutsiyalariga aylangani O‘zbekiston diplomatiyasi umumijahon muammolariga yechim taklif etayotganini ko‘rsatadi. Ammo diplomatiyaning eng muhim natijasi faqat qabul qilingan hujjatlarda emas. U chegaradan erkin o‘tayotgan oilalar, hududlararo savdo qilyotgan tabdirkorlar va umumiy xavflarga birgalikda javob berayotgan qo‘shni xalqlar hayotida ko‘rinadi.

Islohotlarning bosh mezonini

Mustaqillikning qiymati, avvalo, inson taqdirida namoyon bo‘ladi. Xalqaro mehnat tashkiloti 2021-yilgi paxta yig‘im-terimi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston paxtasi tizimli bolalar va majburiy mehnatdan xoli ekanini tasdiqladi. 2022-yilda global boykotning bekor qilinishi mehnat huquqlarini ta‘minlash iqtisodiy imkoniyatlarni ham kengaytirishini ko‘rsatdi.

Bu o‘zgarish, avvalo, bolalarning paxta mavsumida darsdan qolmay, ta‘limni uzluksiz davom ettirayotganida, mehnatkashlarning esa munosib mehnat sharoitiga ega bo‘layotganida namoyon bo‘ladi. Demak, islohot natijasi xalqaro e’tirof bilangina emas, oilalar hayoti, bolalar kelajagi va inson qadrida ham ko‘rinmoqda.

Qonunchilik va fuqarolikni rasmiylashtirish tartiblarning takomillashtirilishi natijasida so‘nggi yillarda fuqaroligi bo‘lmagan 90 mingdan ortiq shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berildi. Bu minglab insonlar uchun ta‘lim, mehnat, ijtimoiy himoya va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish imkoniyati kengayganini anglatadi.

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish, xotin-

Ochiq iqtisodiyot — odamlar farovonligi uchun

Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, soliq va bojxona tizimining yangilanishi, tabdirkorlik va tashqi savdo uchun imkoniyatlarning kengayishi iqtisodiyotning ochiq va raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qildi. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotiga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat iqtisodiyoti 7,7 foiz o‘tdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi.

Bu katta marra, ammo iqtisodiy o‘shishning haqiqiy qiymati uning yangi ish o‘rinlari, barqaror daromad, sifatli infratuzilma va hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga qanchalik xizmat qilishi bilan o‘lchanadi.

Raqamlashtirish davlat va fuqaro munosabatini ham o‘zgartirmoqda. 2025-yilda

12,8 million kishi raqamli davlat xizmatlaridan foydalandi. Bu ko‘plab xizmatlarni olishda vaqt va xarajatni qisqartirish, ortiqcha ovoragarchilikni kamaytirish imkonini berdi. Endi asosiy vazifa — elektron xizmatlarning faqat sonini emas, balki sifatini ham oshirish, chekka hududlarda raqamli tengsizlikni kamaytirish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va idoralar axborot tizimlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishdir.

Iqtisodiyotning keyingi bosqichi mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi, innovatsiya va halol raqobatga tayanishi lozim. Xususiy sektor uchun teng sharoit, sud orqali ishonchli himoya va qoidalarining barqarorligi ta‘minlanmasa, yuqori o‘shish sur‘ati samarasi to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Shu bois, ochiq iqtisodiyotning bosh maqsadi statistik ko‘rsatkich emas, balki insonning mehnati qadrlanadigan va tashabbusi qo‘llab-quvvatlanadigan muhitni yaratishdan iborat.



LAVOZIM EMAS, SALOHİYAT VA NATIJA BAHOLANADIGAN DAVR

aylantiradi. Endi lavozim o‘shishi ham, oylik ham aniq qoidalar asosida shakllanadi.

Eng muhimi, har bir davlat xizmatchisi o‘z mehnati qat tarzda baholanishini, qaysi natija uchun ustama yoki bonus olishini oldindan biladi. Bu esa shaffoflikni ta‘minlash bilan birga shaxsiy mas’uliyatni kuchaytiradi.

Davlat xizmatida eng katta muammolardan biri yillar davomida mehnat natijasi bilan ish haqi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli darajada shakllanmagani edi. Kimdir vijdonan mehnat qildi, tashabbus ko‘rsatdi, yangi g‘oyalarni ilgari surdi. Yana kimdir vazifasini rasmiy tarzda bajarish bilan bog‘lanishni qoldirib, rag‘batlantirish masalasida ular o‘rtasida sezilarli farq hamisha ham kuzatilmadi. Bu esa mehnat unumdorligiga ham, davlat xizmati nufuziga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy, albatta.

Yangi tizim aynan shu muammoni hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Endi ish haqi faqat egallab turgan lavozimga emas, balki xizmatchining amaliy faoliyati, mas’uliyati va erishgan natijalariga qarab belgilanadi. Shuningdek, xodimning malakasi, funksional vazifalarni bajarish sifati, ijro intizomi, tashabbuskorligi hamda KPI ko‘rsatkichlari inobatga olinadi.

Bonuslarni to‘lash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu rag‘batlantirish turi tasodifiy yoki subyektiv qarorlarga emas, balki xodimning ilg‘or axborot texnologiyalarni, jumladan, sun‘iy intellekt, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgani, tajriba va malakasini oshirgani kabi aniq mezonlar asosida to‘lanadi. Mazkur talab davlat xizmatchisini doimiy o‘qishga,

o‘z ustida ishlashga, zamon bilan hamnafas bo‘lishga undaydi.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Singapur, Janubiy Koreya, Kanada va Buyuk Britaniya davlat

xizmati yuqori professionallik va aniq mezonlar asosida shakllangan. Ularda davlat xizmatchilari faoliyati faqat bajarilgan vazifalar soni bilan emas, balki erishilgan natija, jamiyat uchun yaratilgan qiymat va xizmat samaradorligi asosida baholanaadi.

“

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish doirasida taklif etilayotgan yangi yondashuvlar ana shu ilg‘or xalqaro tajriba va zamonaviy boshqaruv tamoyillariga hamohangdir. Ya‘ni endi davlat xizmatchisining mehnati nafaqat bajarilgan vazifalar, balki aniq natija, tashabbuskorlik va fuqarolar manfaatiga qo‘shgan hissassi orqali baholanishiga alohida e’tibor qaratiladi.



mamlakat umumiy generatsiya quvvatining 31 foiziga yetdi. Bu tabiiy gazga qaramlikni va zararli chiqindilarni kamaytirish imkoniyatini kengaytirdi.

Biroq yangi stansiyalarni barpo etishning o‘zi yetarli emas: elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiyani saqlash tizimlarini rivojlantirish, suv va energiyadan tejamonkor foydalanish, aholi hamda biznes uchun adolatli “yashil” o‘tishni ta‘minlash zarur.

Barqaror rivojlanish maqsadlari ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik natijalarni yagona mezonada baholash imkonini beradi. O‘zbekiston 16 ta milliy maqsadni qabul qildi, 2020 va 2023-yillarda BMTning Oliy darajadagi siyosiy forumida ixtiyoriy milliy shahrlarini taqdim etdi.

2026-yilgi Barqaror rivojlanish hisobotida mamlakatimiz 169 davlat orasida 65-o‘rinni egallab, 72,95 ball to‘pladi. Bu ijobiy siljishni ko‘rsatadi, ammo reytingning o‘zi barcha vazifa hal etilganini anglatmaydi. Ayniqsa, barqaror shaharlar, iqlim, suv, havo sifati va hududiy tengsizlik masalalarida sur‘atni oshirish talab etiladi.

O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlik dasturi samarali boshqaruv va adolat, munosib turmush va ijtimoiy himoya, sog‘liq, inklyuziv ta‘lim, iqlim hamda Orolbo‘yini kompleks rivojlantirishni yagona kun tartibida birlashtiradi. Uning asosiy mazmuni taraqqiyot samarasidan har bir inson bahramand bo‘lishini ta‘minlashdir. Endi milliy ko‘rsatkichlarni mahalla va oila hayotidagi aniq o‘zgarishlarga aylantirish bosh vazifa bo‘lib qoladi.

E’tirofdan kundalik hayot sifatiga

Mustaqillik yo‘lining muhim natijasi — O‘zbekistonning o‘z milliy manfaatini himoya qiladigan, shu bilan birga, mintaqaviy va umuminsoniy muammolar bo‘yicha tashabbus ko‘rsata oladigan davlat sifatida shakllanganidir. Tinchlik — taraqqiyot uchun sharoit, inson qadri — uning maqsadi, samarali institutlar — kafolati, tabiatga mas’uliyat — kelajagi, xalqaro sheriklik esa imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil.

Shu bilan birga, sud-huquq tizimida adolat va qonunning bir xil qo‘llanishini ta‘minlash, jamoatchilik muloqoti va hisobdorlikni kengaytirish, ta‘lim sifatini oshirish, xususiy sektor uchun teng raqobat muhitini ta‘minlash, suv tanqisligi va iqlim xavflariga moslashish bo‘yicha islohotlarni izchil davom ettirish zarur. Muammolarni ochiq tan olish erishilgan yutuqlarni kamaytirmaydi, aksincha, ularni mustahkam va qaytarilmasligini ta‘minlaydi.

UNESCO maqomi va Islom sivilizatsiyasi markaziga xalqaro qiziqish milliy merosni asrash, ilmiy o‘rganish va jahonga zamonaviy tilda taqdim etish bo‘yicha doimiy mehnatni talab qiladi. Yangi energetika quvvatlari — energiya samaradorligini, yuqori reytinglar — xizmatlar sifati va teng imkoniyatlarni, xalqaro tashabbuslar esa qabul qilingan majburiyatlarni izchil bajarishni talab etadi. Xalqaro e’tirof yo‘lining oxiri emas — u qonun ustuvorligi, inson huquqlari va tabiiy resurslarni asrash mas’uliyatini yanada oshiradi.

Shu bois, 35 yillik sana faqat o‘tmishga qarab faxrlanish emas, natijalarni xolis baholash va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni belgilash nuqtasidir. Keyingi bosqichning bosh mezonini — xalqaro e’tirofni toza suv, sifatli ta‘lim, munosib mehnat, adolat, sog‘lom muhit va ertangi kunga ishonch orqali odamlar hayotida seziladigan natijaga aylantirish.

Boshlanishi 1-betda


O‘rmi kelganda so‘nggi yillarda davlat xizmati sohasida qator tarixiy qarorlar qabul qilinganini qayd etish joiz. Xususan, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun bilan davlat xizmatchilari huquq va majburiyatlari, xizmat intizomi, odob-xiloq qoidalari hamda kasbiy faoliyatining asosiy tamoyillari mustahkam huquqiy tayanchga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi apparati optimallashtirildi. Agar 2016-yilda davlat organlarida boshqaruv xodimlari soni 73 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, bugun 54 mingtagacha qisqartirildi. Bu shunchaki statistika emas, balki davlat boshqaruvi ixchamlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va har bir shtat birligi samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil siyosat natijasidir.

Taqdimotda yutuqlar bilan birga sohada jiddiy nomutanosibliklar mavjudligi tilga olinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar o‘rtaga tashlandi.

Bugungi kunda davlat xizmatchilari maoshining asosiy qismi lavozim maoshidan emas, turli ustama va qo‘shimcha to‘lovlar hisobiga shakllanmoqda. Lavozim maoshining ulushi ayrim hollarda umumiy ish haqining 15 foizidan ham oshmaydi. Qolgan mablag‘ esa o‘nlab turdagi ustama, mukofot va rag‘batlantirish to‘lovlaridan iborat.

Muammo shundaki, mazkur to‘lovlarning aksariyati xodimning mehnat natijasi bilan bog‘liq emas. Kimdir ko‘proq, yana kimdir aynan bir xil ishni bajarib turib ancha kam haq oladi. Natijada bir xil vazifani bajarayotgan ikki davlat xizmatchisining ish haqi o‘rtasida katta tafovut yuzaga keladi. Ayrim vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalarida ishlayotgan mutaxassislar bilan mahalliy hokimliklarda aynan shu vazifani bajarayotganlar maoshlari ham keskin farq qiladi. Bunday holat esa mehnat munosabatlardagi eng muhim tamoyil — adolat mezonlariga umuman to‘g‘ri kelmaydi.



Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, bugun mehnatga haq to‘lash tartibini belgilaydigan yagona huquqiy hujjat mavjud emas. Turli davlat organlarida ellikdan ortiq normativ hujjat asosida maosh hisoblanadi. Bu esa bir idorada amal qilayotgan qoida boshqasida o‘zgacha bo‘lishiga, turlicha yondashuv va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, yangi tizimni joriy etish davr talabidir.

Taklif etilayotgan yangi tizimning eng katta afzalligi shundaki, u mehnatga haq to‘lashni yagona mezonlar asosida tashkil etadi. Endi davlat organlari milliy, respublika, hududiy hamda tuman va shahar darajalariga ajratiladi. Xodimlar esa bajaradigan vazifalariga qarab ma‘muriy boshqaruv, asosiy va qo‘llab-quvvatlash guruhlariga bo‘linadi.

Bu tasnif davlat xizmatining har bir bo‘g‘inida mas’uliyat darajasini aniq belgilash, vazifalarni tizimlashtirish va ularga munosib haq to‘lash imkonini beradi. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan, 11 ta razryad va 6 ta pog‘onadan iborat yangi tarif setkasi esa davlat xizmatini kasbiy o‘shishga asoslangan tizimga



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_tv

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

ORZULAR RO‘YOBIN KO‘RGAN TAQDIRLAR

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bugun esa vaziyat butunlay boshqacha. Raqobat bor, tanlov keng. Hamma cho‘ntagiga va ta‘biga qarab, bemalol xarid qilyapti. Bu jamiyatimizdagi farovonlikning, odamlar qalbidagi xotirjamlik va erkinlikning haqiqiy, jonli ko‘rinishi.

Kartadagi mablag‘imdan naqd pul yechish uchun bankomatlarga yaqinlashdim. Biroq har bir bankomat oldida turnaqator navbat bor ekan. Shunda vaqtini tejash maqsadida bozordagi bank filialiga kirishga qaror qildim.

U yerda ham odam ancha ekan. Ammo tashqaridagi issiqdan ko‘ra, ichkarida, salqingina stulda o‘tirib navbat kutishni afzal ko‘rdim. Endigina navbatimiz yaqinlashib, ishimiz bitay deganda, to‘satdan bankda elektr o‘chib qoldi. Bank xodimi xijolatdan qizarib, mijozlardan uzr so‘radi:

— Hurmatli mijozlar, tizimda qisqa nosozlik yuzaga keldi. Texnik sabablarga ko‘ra, o‘n besh daqiqacha kutishingizga to‘g‘ri keladi. Noqulaylik uchun uzr so‘raymiz.

Ichkarida kimdir uh tortib yubordi, kimdir soatiga qaradi. Shunda haligi otaxonning ovozi yangradi. Sekin unga yaqinlashdim.

— Nima ish bilan kelgandigiz, otaxon? — deb so‘radim asta suhbatga tortib.

U nurlu yuziga juda yarashgan samimiy, nuroniy tabassum bilan javob berdi:

— Dollar sotib olgani keluvdim, bolam.

— Safargami?

— Ha, nasib bo‘lsa, jo‘ralar, eski qadrdonlar bilan Dubayga dam olgani bormoqchimiz.

So‘ng chuqur xo‘rsinish bilan pichirladi:

— Mana shunday dorilamon kunlarga yetkazganiga ming qatla shukr.

Ma‘lum bo‘lishicha, otaxon uzoq yillar oliy ta‘lim tizimida mehnat qilib, yuzlab shogirdlarni kamolga yetkazgan.

— Hozirgi yoshlar chet elga borishni xuddi qo‘shni mahallaga chiqib kelishdek oddiy, kundalik holat deb biladi, — dedi u o‘tmish xotiralarini ko‘z o‘ngida jonlantirib. — Bu juda yaxshi, albatta, bundan faqat quvonish kerak. Lekin ular biz ko‘rgan, biz yashagan davrlarni bilganida, o‘sha to‘siqlarni ko‘rganida edi, bugungi erkinlik va imkoniyatlar qadrlari yanada chuqur, yanada teran his qilgan bo‘lardir.

Otaxon suhbat davomida o‘zining eng katta armonini so‘zlab berdi. U yosh, kuchga to‘lgan, ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan yillari bir necha bor nufuzli xalqaro konferensiyalarga, ilmiy seminarlarga taklifnoma olgan. Ammo birotasiga ham bora olmagan. Sababi bilimi yoki salohiyati yetmagani emas, balki yuqoridagi ruxsat berilmaganidan...

U paytlarda xorijga chiqish uchun faqat pasport kifoya qilmasdi. Chiqish vizasi (stiker) degan mash‘um, inson erkinligini bog‘lab turadigan to‘siq bor edi. Odamlar oylab, yillab turli idoralar eshigida sarson-sargardon bo‘lar, shaxsi, yetti pushi, qarindosh-urug‘i — barchasi ipidan ignasigacha tekshirilardi. Eng alamlisi, barcha hujjatni taxt qilib, oylab yurak hovuchlab kutganingizdan keyin ham qaysidir xonada o‘tirgan noma‘lum amaldorning birgina imosi bilan rad javobi berilardi. Hech qanday tushuntirishsiz, hech qanday sababsiz.

— Xalqaro seminar uchun ilmiy ma‘ruzam tayyor edi, — deydi suhbatdoshim. — Ammo xorijga chiqish uchun ruxsatnoma ololmadim. Natijada mening o‘rnimga sohaga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan, faqat tanish-bilish zanjiriga ulangan boshqa bir odam ketgan. O‘shanda tilimni tishlagancha, uyga kelib to‘yib-to‘yib yig‘laganman.

Xayolga cho‘maman. Bugun-chi? Bugun minglab, o‘n minglab yoshlarimiz, oddiy yurtodshlarimiz dunyoning istalgan nuqtasida erkin-erkin ta‘lim olmoqda, ishlamoqda, dunyo kezmog‘da. Eng muhimi, inson o‘z taqdirini, qayerga va qachon borishini o‘zi hal qilyapti. Inson o‘zini erkin shaxs sifatida his qila boshladi.

Suhbat toбора quyuqlashib, otaxonning xotiralar daftaridan yana bir og‘riqli sahifa ochildi. Bu uning yangi avtomobil olish uchun qilgan sa‘y-harakati va chekkan azoblari bilan bog‘liq bo‘ldi.

— Agar valyuta tizimi haqida gapirsam, hozirgi yigit-qizlar buni shunchaki ertak yoki mubolag‘a deb o‘ylashi tabiiy, — deb davom etdi suhbatdoshim. — Chunki ular davlat kursi bilan qora bozor kursi o‘rtasidagi o‘sha mudhish, mamlakat iqtisodiyotini ham, inson qadr-qimmatini ham yerga urgan ulkan, dahshatli jarlikni ko‘rmadi.

Rostdan ham yaqin o‘tmishimizda mamlakatda valyuta bilan bog‘liq ikki xil dunyo, ikki xil voqeik bor edi. Biri jozibador, rasmiy raqamlarda ko‘rsatilgan kurs. Ikkinchisi hayotning achchiq, asl yuzi bo‘lgan qora bozor. Kinga dollar kerak bo‘lsa, bankka emas, qonundan yashiringan valyutachilar oldiga yugurgan.

Sotuvchi ham xavotirda, xaridor ham yurak hovuchlab turardi. Oddiy iqtisodiy operatsiya emas, go‘yo og‘ir jinoyat ustida turgandek his qilardi o‘zini.

— O‘sha paytlarda odamlar “taka sut beradi”, desangiz ishonardi, lekin “bankdan davlat kursida, hech qanday muammosiz, erkin dollar sotib oldim”, desangiz, hech kim ishonmasdi, — deya otaxon achchiq kulimsirdi.

Bu shunchaki hazil emas edi. Bu butun boshli tizimning tanazzuliga, boshi berk ko‘chaga kirib qolganiga qo‘yilgan aniq va shafqatsiz tashxis edi.



— U paytlarda avtomobil olish uchun shartnoma tuzishning o‘zi bir mashaqqat edi, — deya soatga qarab so‘zini davom ettirdi mo‘ysafid. — Oylab tanish-bilish izlaysan, kimdadir yalinasan. Shartnoma tuzgandan keyin esa pul to‘lash kerak. Mablag‘ing milliy valyutada naqd bo‘lsa ham uni to‘lash uchun yana bozorga chiqib dollar qidirasan. Men ham o‘shanda arzonroq valyuta izlab bozorga chiqqanman. Maqsadim dollarni o‘ziga bo‘lsa ham arzonroq sotib olish uchun bozordagi valyutachilardan emas, balki zarur bo‘lib o‘zining dollarini sotishga kelgan oddiy odamlardan olish bo‘lgan. Bu holat o‘sha yerdagi monopoli valyutachilarga yuqomagan. Qisqasi, o‘shalar chaqdimi yoki harakatim shubha uyg‘otdimi, bir payt qarasam, ikki nafar ichki ishlar xodimi kelib, o‘zini tanishtirdi-yo, qo‘lmdan tutdi. Katta jinoyatchidek olib ketishdi. Xizmat xonasi. Soatlab davom etgan ruhan ezuvchi savol-javoblar, bayonnomalar... Tushuntirishlar foyda bermadi. Keyin esa sud bo‘ldi. Haliyam o‘shanda pullarning hammasini o‘zim bilan olib yurmagan ekanman, bo‘lmasa, hammasi musodara qilinarkan. Ustiga-ustak yaxshigina jarima ham to‘ladim...

Otaxon bir muddat jim qoldi. Ko‘zlarida o‘sha olis va qora yillarning zahri, alami yana bir bor qalqib chiqdi.

— Bilasanmi, bolam, hozir o‘ylasam, o‘shanda kuyib kergan, yillab yiqqan pullarimdan ham ko‘ra ko‘proq boshqa narsa alam qilgan ekan...

— Nima ekan u?



— Avvalo, toptalgan qadr-qimmatim, g‘ururim. Insonning o‘z yurtida halol mehnati bilan topgan pulini almashtirishda o‘zini mahkum, gunohkor, jinoyatchidek his qilishi eng og‘ir ruhiy ezilish ekan.

Bu gaplar meni negadir yana bir unutilayotgan, ammo minglab insonlarning taqdirini bemaqul sindirgan, odamlarni sarson qilgan yaqin o‘tmishning og‘riqli fojiasi — “propiska” haqida o‘ylashga majbur qildi. Bir vaqtlar bu so‘z yurtimizning chekka-chekka shahar qishloqlaridan chiqqan, ilmiy, iqtidorli yoshlarning orzulari, kelajagi yo‘lidagi baland temir devor edi. Poytaxtda yashash, ijod qilish, halol mehnat bilan uy sotib olish uchun inson qanchadan-qancha to‘siq va

Shu payt bank binosida yarq etib chiroqlar yonib, kompyuterlar ishga tushdi. Navbat yana jonlandi. Odamlar shoshib o‘z ishiga qaytdi. Elektron tablod otaxonning raqami ko‘rindi. U o‘midan turayotib, menga mehr bilan qaradi va yelkama qo‘lini qo‘yib, bunday dedi:

Anvar Ikromov ham ana shunday taqdiri yarim, yuragi dog‘li yurtodshlarimizdan edi. Uning hayot yo‘llaridan to‘liq bo‘lmasa-da, qisman xabardor edim. U Forish tumanining Uxum qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda maktabni tamomlagan. Butun bolaligi, yoshligi, xullas, hamma-hammasi shu

“ Bankdagi otaxon va qishloqdoshim Anvar akaning hayoti kabi yorqin misollar yurtimizdagi o‘zgarishlar shunchaki qog‘ozda emas, balki oddiy insonlar taqdiriga qanchalik chuqur va ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini yaqqol namoyon etadi. Zero, bugun davlat siyosati markazida inson manfaatlarini turishi, har bir fuqaroning qadr-qimmatini va huquqlari e‘zozlanishi mamlakat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim, eng ustuvor omil bo‘lib qolaveradi.

— Bolam, biz qiyinchilikni, yo‘qchilikni, eng yomoni, huquqsizlikni ko‘rgan, suyaigida his qilgan avlodmiz. Shuning uchun bugungi kunning, mana shu oddiygina bankomat yoki bank oldidagi erkinlikning, xotirjamlikning qadrlari yaxshi bilamiz. Kechagi kunini unutmagun odam buguniga shukr qiladi. Buguniga shukr qilgan odamning esa ertasi doim yorug‘ va nurlu bo‘ladi.

U shaxdam qadamlar bilan bank kassasi tomon yurib ketdi. Men ham uning ortidan ishimni bitirib, yengil nafas olganicha tashqariga chiqdim.

Shu payt ro‘paramdan kutilmaganda qishloqdoshim Anvar Ikromov chiqib qoldi. Bir-birimizni ko‘rib, xuddi yaqin jigarlardek quvonib ketdik. Suhbatimiz quyuqlashdi.

— Ha, jurnalist uka, bankdan pullaringni dollarga almashtirib chiqayapsanmi, buncha xursandсан? — dedi u hazil aralash.

— Yo‘q, Anvar aka, yangi maqolam uchun jonli misollar, yangi qahramonlar topdim, — dedim. — Ayni paytda odamlar hayotidagi, taqdiridagi ijobiy o‘zgarishlar, inson qadri haqida yozmoqchiman.

Anvar aka bir oz o‘ylanib turdi-da, yuziga samimiy tabassum yugurib dedi:

— U holda mening taqdirim ham senga yaxshigina hayotiy misol bo‘lsa kerak, uka. Buni, albatta, yoz.

Bozordagi shinam oshxonaga kirdik. Issiq cho‘y ustida Anvar akaning hayot yo‘lidagi og‘ir sinovlar, boshdan kechirgan xo‘rliliklari va keyinchalik taqdiri qanday tubdan o‘zgargani haqida og‘riqli, ammo yakuni go‘zal suhbat boshlandi.

Ilgari yillar davomida o‘z yechimini topmay, qog‘ozlar ostida ko‘milib kelgan ko‘plab ijtimoiy masalalar bugun adolati hal etilmoqda. Fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirish yo‘lida qabul qilinayotgan qarorlar minglab, millionlab insonlar qalbida yangi umid va so‘nmas ishonch uyg‘otmoqda.

Ayniqsa, fuqarolik masalasida yillar davomida “havoda muallaq qolgan” noaniq maqomda yashab kelgan, o‘z yurtida begonadek yurgan yurtodshlarimiz huquqlari tiklanayotgani mazkur islohotlarning eng insoniy, eng hayotiy natijalaridan.

zaminda o‘tgan. Keyinchalik oliy ma‘lumot olish, ilm cho‘qqilarini zabt etish uchun qo‘shni Tojikistonning Dushanbe shahriga borib tahsil oldi.

O‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagach, vatan sog‘inchi bilan yana jonajon yurtiga qaytdi. Ammo uni mutlaqo kutilmagan, aqlga sig‘mas sovuq muammo qarshi oldi — unga O‘zbekiston fuqaroligi berilmadi.



O‘sha davrlarda bunday muammolarni hal etish o‘ta mushkul, deyarli imkonsiz bo‘lib, minglab odamlar yillar davomida “fuqaroligi yo‘q shaxs” degan kentik huquqiy maqomda yashashga majbur edi.

Anvar Ikromov ham bu borada turli tashkilotlarga, mutasaddi idoralarga tinimsiz murojaat qildi. Biroq oradan yillar o‘tsa-da, masala qilchalik ham yechim topmadi. Pasporti, ya‘ni yashil hujjati yo‘qligi sababli ona yurtida, kindik qoni to‘kilgan zaminda xuddi begonadek, kelib-ketuvchi musofirdek yashashga majbur bo‘ldi. Ko‘p hollarda kundalik va rasmiy ishlarni bajarish, farzandlariga hujjat to‘g‘rilashda qiyinchiliklarga duch keldi.

Eng alamlisi va mantiqsizligi, u shu yurtida tug‘ilib, shu yerda maktabni tugatgan bo‘lsa-da, faqat bir necha yil qo‘shni davlatda tahsil olib

qaytgani unga o‘z vatani pasportini bermaslik uchun asos qilib ko‘rsatilgandi.

— Pasport yo‘qligi, inson maqomining yo‘qligi odamni ich-ichidan qanchalik yemirishini, qanchalik xor qilishini faqat mana shu holatni boshdan kechirgan insongina tushunadi, uka, — deydi Anvar aka ko‘zlarini oshxona derazasidan tashqariga tikib. — O‘z yurtidagi yashaysan, uni joningdan yaxshi ko‘rsan, lekin qonun oldida go‘yo o‘zga sayyoralikdekkan... Biror joyga tayinli ishga kirolmaysan, hujjatlarni rasmiylashtirmaysan, hatto kundalik hayotdagi oddiy maishiy masalalarni hal qilish ham sen uchun yechilmas muammoga aylanib qoladi. Vaqt shafqatsiz o‘taverdi. To‘g‘risi, kun kelib o‘z yurtimning pasportini qo‘limga olishdan, farzandlarim oldida boshimni tik tutishdan butkul umidim uzilgan edi. Ammo hayotda ba‘zan birgina to‘g‘ri qaror, yuqoridan berilgan birgina adolatli farmon inson taqdirini, umidlarini tubdan o‘zgartirib yuborishi, unga ikkinchi bor umr bag‘ishlashi mumkin ekan.

Anvar aka uchun ham mamlakatimizda boshlangan yangi davr, yangi islohotlar hayotidagi ana shunday qutlug‘ burilish nuqtasi bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining tarixiy farmoni fuqaroligi bo‘lmagan, yillar davomida arasotda qolgan minglab insonlar qatori uning uchun ham yangi hayot, erkinlik eshigini ochdi.

U bir lahzsa sukut saqladi, go‘yo o‘sha hayotidagi eng hayajonli kunlarni xayolan yana bir bor boshdan kechirayotgandek yuragi tez urib so‘zida davom etdi:

— 2017-yilning 16-yanvar kuni... Bu sana xotiramga oltin harflar bilan yozilgan, uka. O‘sha kuni qo‘limga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini olganimda, ishonib-ishonmay yig‘lab yuborganman. Go‘yo qayta tug‘ilgandek, yelkamdanda tog‘ darilgandek bo‘ldi. Bu men uchun shunchaki hujjat emasdi. Bu jonajon mamlakatimning menga ishonchi, e‘tibori va cheksiz g‘amxo‘rligining yaqqol ramzi, haqiqiy inson qadri edi.

Pasport olgach, Anvar akaning hayoti ham o‘zgarib ketdi. U darhol rasmiy ishga joylashdi, oilasi, farzandlari uchun yanada mustahkam va ishonchli tayanchga aylandi. Eng muhimi, u endi to‘laqonli fuqaro sifatida saylovlarda qatnashdi, o‘z tanlovi asosida kelajak uchun ovoz berdi. O‘zini davlat himoyasidagi fuqaro sifatida his qildi...

Aslida, hayotning o‘zi eng buyuk tahlilchi, vaqt esa eng adolatli hakam. Xalqning xotirasi esa hech qachon, hech qanday sharoitda aldamaydi. Kechagi kunini, chekkan zahmatlarini unutmagun inson bugunning har bir tinch lahzasi, har bir qulayligi qadriga

yetadi. Bugunning qadriga yetgan xalq esa ertangi kunga, kelajakka yuksak ishonch va g‘urur bilan qaraydi.

Ana shu ishonch, ana shu ichki xotirjamlik va erkinlik tuyg‘usi bugungi O‘zbekistonning ko‘z qorachig‘idek asrashimiz kerak bo‘lgan eng katta, bebaho boyligi.

Bankdagi otaxon va qishloqdoshim Anvar akaning hayoti kabi yorqin misollar yurtimizdagi o‘zgarishlar shunchaki qog‘ozda emas, balki oddiy insonlar taqdiriga qanchalik chuqur va ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini yaqqol namoyon etadi. Zero, bugun davlat siyosati markazida inson manfaatlarini turishi, har bir fuqaroning qadr-qimmatini va huquqlari e‘zozlanishi mamlakat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim, eng ustuvor omil bo‘lib qolaveradi.

